

**SAVDO XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI ASOSIY
KO'RSATKICHLARINING EKONOMETRIK TAHLILI**

PhD Maxmatqulov G'olibjon Xolmuminovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

ORCID: 0000-0003-3717-172X

Sayfullayev Sarvarbek Asadulla o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Bobomirzayev Asrorbek Alisher o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. Maqolada savdo xizmatlarini rivojlantirishda ta'sir etuvchi omillarning hududiy jihatdan farqlanishi, rivojlanish tendensiyasining hududiy jihatdan o'ziga xos xususliyatlarga ega bo'lishi bilan o'zviy bog'liqligi tadqiq etilgan. Shuningdek, tendensiya ko'rsatkichlari tizimini shakllantirishda, hududiy indekatorlarning umumiy indekataorlarga mos belgisiga ega bo'lishi keltirilgan. Tendensiya belgilari rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik-texnologik qonuniyatlarini o'rganish imkoniyatini berishi negizida ustuvor omillarni baholash mumkinligi asoslangan. Savdo xizmatlarining hududiy rivojlanish holati muayyan bir dinamikada hududiy yaxlitlik hamda tarkibiy hudud ko'rsatkichlari taqqoslamasida tahlil qilingan. Savdo xizmatlari ko'rsatish tarmog'ida resurs samaradorlik darajasi, tashqi savdo tizimidagi o'zgarishlar, aholi sonining o'zgarishi, turmush tarzidagi ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik o'zgarishlar, savdo muhitining innovatsiyalashuv darajasi va savdo korxonalarining kapital taqsimoti tendension rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishda eng asosiy ta'sir elementlari sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: savdo xizmatlari; regression model; korrelyatsiya koeffitsiyenti; tashqi savdo; eksport va import; savdo xizmatlarini rivojlantirish; ekonometrik model; modellashtirish; mehnat unumдорлиги ko'rsatkichlari.

**ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ УСЛУГ**

PhD Махматкулов Голибжан Холмуминович

Каршинский инженерно-экономический институт

Сайфуллаев Сарварбека Асадулла угли

Каршинский инженерно-экономический институт

Бобомирзаев Асрорбека Алишер угли

Каршинский инженерно-экономический институт

Аннотация. В статье исследована региональная дифференциация факторов, влияющих на развитие торговых услуг, и внутренняя связь тенденции развития с региональными особенностями. Также при формировании системы трендовых индикаторов региональные индикаторы должны иметь тот же знак, что и общие индикаторы. Он основан на том, что приоритетные факторы могут быть оценены на основе того, что признаки тенденций позволяют изучать социально-экономические, технические и технологические закономерности развития. Состояние регионального развития торговых услуг анализировалось в определенной динамике путем сравнения показателей территориальной целостности и структуры территории.

Уровень ресурсоэффективности сети торгового обслуживания, изменения во внешнеторговой системе, изменения численности населения, социально-экономические, технологические изменения в образе жизни, уровень инновационности торговой среды и распределения капитала торговых предприятий раскрывают развитие. тенденции. оценивались как основные элементы влияния.

Ключевые слова: торговые услуги; регрессионная модель; коэффициент корреляции; внешняя торговля; экспорт и импорт; развитие торговых услуг; эконометрическая модель; моделирование; показатели производительности труда.

ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE MAIN INDICATORS OF THE DEVELOPMENT OF TRADE SERVICES

PhD Makhmatkulov Golibjon Kholmuminovich

Karshi Engineering Economics Institute

Sayfullayev Sarvarbek Asadulla ugli

Karshi Engineering Economics Institute

Bobomirzayev Asrorbek Alisher ugli

Karshi Engineering Economics Institute

Annotation. The article examines the regional differentiation of factors influencing the development of trade services, and the internal connection of development trends with regional characteristics. Also, when forming a system of trend indicators, regional indicators should have the same sign as general indicators. It is based on the fact that priority factors can be assessed on the basis that signs of trends make it possible to study socio-economic, technical and technological patterns of development. The state of regional development of trade services was analyzed in certain dynamics by comparing indicators of territorial integrity and territory structure. The level of resource efficiency of the trade service network, changes in the foreign trade system, changes in population, socio-economic, technological changes in lifestyle, the level of innovativeness of the trade environment and the distribution of capital of trade enterprises reveal development. trends. were assessed as the main elements of influence.

Keywords: trading services; regression model; correlation coefficient; international trade; export and import; development of trade services; econometric model; modeling; labor productivity indicators.

Kirish.

Bugungi kunda savdo xizmati ko'rsatish obyektlarining loyihasi boshqa xizmat turlarini istisno etmagan holda aytish mumkinki, shaharsozlikni rejalahshtirishning muayyan bir mezoni darajasigacha ko'tarildi. Bu nafaqat shahar balki barcha aholi punktlari uchun infratuzilmani shakllantirishda dastlabki hisobga olinadigan jihatlardan biri bo'lib qoldi. Ko'pgina xorij olimlari iqtisodiy infratuzilmaning to'g'ri tashkil etilishini bir tizim sifatida olib qaraganda uning yadrosida aynan savdo obyektlarini ko'rishmoqda (Хайруллина, 2015).

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish tarmoqlari ichida eng katta ulushga ega bo'lib turgan savdo xizmatlari tarmog'i mamlakatimizda o'ziga xos rivojlanish bosqichlaridan o'tgan. Bu jarayon uzlusiz jarayon bo'lib, uning borishi hududiy ko'lamlarda turlicha bo'lishi mumkin. Mintaqalar xarakteridan kelib chiqib, uning savdo xizmatlariga ixtisoslashuv qobiliyatini bilish umummamlakat va mintaqalari miqyosida savdo xizmatlarining rivojlanish tasnifini ko'rsata oladigan belgilarni qiyosiy o'rganish, chuqur ekonometrik tahlillashni taqoza etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Köpgina xorijiy iqtisodchi olimlari savdo xizmatlari bozorida zamonaviy marketing tamoyillari asosida samaradorlikni oshirish modellarini, zamonaviy rivojlanish talablari asosida ulgurji va chakana savdo korxonalarini tashkil etish va yangi texnologiyalar asosida rivojlantirishning turli modellarini taklif etishgan bo'sada, bu modellar iqtisodiy-boshqaruv, marketing, tashkiliy xarakterdagi iqtisodiy qonuniyatlarni umumiy holda tushuntirish, ko'rsatkichlarning alohida holatida, bog'liqsiz baholash va tadqiq etish bilan cheklangan (Ohud Almutairi et al. 2020).

Savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasi, ekonometrik modellashtirish tahlili, umumiy iqtisodiy tahlili, boshqarish, tashkil etish va optimallashtirish masalalari xorijiy olimlardan tomonidan o'rganilgan Keynes (1936), Michael (2015).

Savdo xizmatlari o'z rivojlanish tendensiyasi davomida turli ta'rif va tasniflarga ega bo'lib, ularning farqlanishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi turli o'zgarishlar zamirida, turli ta'sirlar ostida vujudga keldi (Abdukarimov, 2016). O'zbekistonlik olimlarning savdo xizmatlariga bergen ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi (Soliyev, Buzrukxonov, 2010).

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish masalalariga, xizmatlar sohasini, jumladan, savdo xizmatlarini rivojlantirishga har tomonlama yondoshganlar (Гулямов и др. 1992). Mazkur olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari savdo xizmatlarini rivojlantirishning kompleks muammolarini tadqiq etishning fundamental maydonini hosil qilingan. Sohani rivojlantirishning ekonometrik tadqiqi to'liq amalga oshirilgan (Abdukarimov, 2011).

Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi yangi yo'naliishlar avvalo Y.Shumpeter g'oyasiga asoslangan innovatsion iqtisodiyot AQSH lik olim Bell (1999) tomonidan asoslangan postindustrial jamiyatning rivojlanish tendensiyalari tomonidan kiritilgan raqamli iqtisodiyot dan iborat bo'lmoqda (Шумпетер, 2007).

Savdo tizimida xaridor psixologiyasiga ta'sir etish motivlarini tadqiq etgan ishlarida Mokryun, Bogina va Kuflg (2019) kabi olimlar savdo tizimini optimal tashkil etish murakkablik jihatlarini modellashtirish usullari yordamida sodda obyekt sifatida o'rganish g'oyasini ilgari surib, xususan, modellashtirish jarayonida trend modellarining qo'llanilish mezonlarini zarur hodisa sifatida baholashadi.

Savdo sohasini rivojlantirish muammolari va savdo xizmatlar sifatini oshirish masalalari, hamda savdo xizmatlarining rivojlanishning ekonometrik tahlili ilmiy ishlarida asoslangan (Диссертация, 2022). Iqtisodchi olim Karchenko (2014) mintaqaning innovatsion salohiyatga egaligi savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish uchun zaruriy va yetarli imkoniyatlarning darvozasi ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolaning maqsadi savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasi asosiy ko'rsatkichlarning ekonometrik tahlil qilish va baholashdan iborat.

Ushbu maqola mavzusini yoritishda statistik, taqqoslama, guruhash, ekspert baholash, tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mintaqaning savdo xizmatlari ko'rsatish salohiyatini uning Respublika miqyosida olingan muayyan ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslash yordamida aniqlash mumkin. Shunday asosiy ko'rsatkichlardan biri – bu ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmidir. Shuningdek, bu ko'rsatkich bo'yicha hosilaviy nisbiy ko'rsatkichlarni ham baholashga to'g'ri keladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasida 2021-yilda savdo xizmatlari hajmi 72718,6 mlrd so'mni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich 4224,6 mlrd so'mga teng bo'lib, Respublikaga nisbatan ulushi 5,81 foizni tashkil etmoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida savdo xizmatlari hajmi³⁹


| Yillar | Respublikada, mlrd so'mda | | Viloyatda, mlrd so'mda | | Viloyat ulushi (%) | | |
|--------|---------------------------|--------------------|------------------------|--------------------|--------------------|-------|------|
| | Savdo xizmatlari hajmi | O'sish sur'ati (%) | Savdo xizmatlari hajmi | O'sish sur'ati (%) | | | |
| | nominal | real ⁴⁰ | nominal | real | | | |
| 2010 | 6620,8 | 6620,8 | 121,5 | 342,7 | 342,7 | 119,4 | 5,18 |
| 2011 | 8789,9 | 7660,3 | 115,7 | 460,7 | 404,4 | 118,0 | 5,24 |
| 2012 | 11533,6 | 8839,9 | 115,4 | 643,6 | 491,7 | 121,6 | 5,58 |
| 2013 | 14807,9 | 10068,7 | 113,9 | 863,5 | 576,3 | 117,2 | 5,83 |
| 2014 | 18979,2 | 11649,5 | 115,7 | 1133,8 | 680,6 | 118,1 | 5,97 |
| 2015 | 21366,9 | 13804,6 | 118,5 | 1309,8 | 803,8 | 118,1 | 6,13 |
| 2016 | 27368,2 | 16634,6 | 120,5 | 1675,8 | 975,8 | 121,4 | 6,12 |
| 2017 | 32006,9 | 16684,5 | 100,3 | 1925,4 | 977,8 | 100,2 | 6,02 |
| 2018 | 39743,4 | 17518,7 | 105,0 | 2391,2 | 1024,7 | 104,8 | 6,02 |
| 2019 | 48748,2 | 18815,1 | 107,4 | 2897,6 | 1089,3 | 106,3 | 5,94 |
| 2020 | 57572,7 | 19530,1 | 103,8 | 3446,5 | 1133,9 | 104,1 | 5,99 |
| 2021 | 72718,6 | 22010,4 | 112,7 | 4224,6 | 1249,6 | 110,2 | 5,81 |

Viloyat savdo xizmatlari hajmining Respublikaga nisbatan o'rtacha ulushi so'ngi 12 yillikda 5,84 foizni tashkil etib, bu nisbat barqaror nisbat ekanligi kuzatiladi. Shu bilan birga bu barqarorlikning ta'minlanishi mintaqada savdo xizmatlarining iqtisodiy o'sish tendensiyasi tezligini oshirmaydi (Maxmatkulov, 2022). Bu esa mintaqaning savdo xizmatlari sohasida mavjud potensial o'sish tendensiyasi tezligini oshirish imkoniyatiga ega yoki egamasligini tekshirishni talab etadi. Shu sababli mintaqaning savdo xizmatlari ulushining kelgusi besh yillikda o'zgarish tendensiyasini ko'rib chiqamiz. Buning uchun vaqt omiliga bog'liq mazkur ko'rsatkichning modelini tuzamiz. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz (Maxmatqulov, 2023):

Uh - Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining jami Respublika savdo xizmatlari hajmiga nisbatan ulushi (foizda);

T – vaqt qadami, trendni ifodalaydi (birlik).

Dastlab hisoblagan ulushning miqdoriy ma'lumotlari asosida (1-jadvalga qarang) strukturaviy identifikatsiyalash masalasini echamiz. Buning uchun eng maqbul regressiya chizig'ini tasvirlaymiz (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining Respublikadagi tarkibiy ulushining regressiya egri chizig'i⁴¹

³⁹ O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

⁴⁰ 2010- yil bazis yil sifatida olinib, narxlar indeksi bo'yicha muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

⁴¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1-rasmida darajali funksiyaning grafigi ko'rinishidagi regressiya chizig'ining analitik ifodasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$\ln(Uh) = c_0 + c_1 * \ln(T) \quad (1)$$

Bu yerda c_0, c_1 – regressiya koeffitsiyentlari.

(1) ni parametrlashtirish natijada Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining Respublika bo'yicha mos ulushini ifodalovchi modelni quyidagini yozish mumkin:

$$\ln(Uh) = \underbrace{1,6528}_{t=72,71} + \underbrace{0,0642}_{t=5,127} * \ln(T), \quad (R^2 = 0,87, \delta = 5,48\%) \quad (2)$$

Yuqoridagi modelning adekvatligiga asoslanib, Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining Respublika bo'yicha mos ulushining keyingi besh yillikdagi (2023-2027 y.y) prognoz qiymatlarini hisoblaymiz (2-jadval).

2-jadval

Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmi Respublika bo'yicha mos ulushining prognoz qiymatlarini (2023-2027 y.y.)⁴²

| Prognoz yillari | 2023 | 2024 | 2025 | 2026 | 2027 |
|---------------------------|------|------|------|------|------|
| Ulush (foizda) | 6,16 | 6,19 | 6,21 | 6,24 | 6,27 |
| Utgan yilga nisbatan farq | 0,35 | 0,03 | 0,03 | 0,03 | 0,03 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, keyingi besh yillikda Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining Respublika bo'yicha mos ulushi o'sish tendensiyasiga ega. 2024- yildan boshlab, keyingi yillarda bu ko'rsatkich bir xil farq bilan, ya'ni 0,03 foizga ortib boradi. Mazkur prognoz ko'rsatkichlari mintaqada savdo xizmatlari rivojlanish tendensiyasini vujudga keltiruvchi qonuniylarning kelgusida barqaror o'sish tendensiyasini ta'minlashini asoslaydi.

Respublikada savdo xizmatlari hajmi 2021-yilda 2010-yilga nisbatan 3,32 barobarga oshgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida esa 3,65 barobarga teng. Bu esa mintaqada savdo xizmatlari ko'rsatish hajmining o'sish tendensiyasi Respublikaga nisbatan biroz yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Respublikada savdo xizmatlarining o'rtacha o'sish sur'ati 111,97 foizni, Qashqadaryo viloyatida esa bu ko'rsatkich 113,04 foizni tashkil etmoqda. Viloyatda so'nggi 12 yilda o'rtacha o'sish sur'ati Respublikaga nisbatan 1,07 foizga ortiqroq ekanligini ko'rish mumkin.

Savdo xizmatlari ko'rsatish hajmining Respublika va Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'sish sur'ati ko'rsatkichlari orasida chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lsin deb faraz qilaylik. U holda quyidagi chiziqli bog'liqlik tenglamasini yozamiz:

$$VSXO'S = a_0 + a_1 * RSXO'S \quad (3)$$

Bu yerda $VSXO'S$ – Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining o'sish sur'ati; $RSXO'S$ – O'zbekiston Respublikasi savdo xizmatlari hajmining o'sish sur'ati; a_0, a_1 – chiziqli model koeffitsiyentlari.

(3) ni parametrlashtirish natijada Qashqadaryo viloyati savdo xizmatlari hajmining Respublika bo'yicha mos ulushini ifodalovchi modelni quyidagini yozish mumkin:

$$VSXO'S = \underbrace{-4,2808}_{t=-3,77} + \underbrace{1,04813}_{t=10,383} * RSXO'S, \quad (R^2 = 0,92, \delta = 1,46\%) \quad (4)$$

(4) ko'rinishdagi model adekvatlik shartlarini qanoatlantirsa, u holda, uning yordamida Respublikada aholiga ko'rsatilgan savdo xizmatlari o'sish sur'atining 1 foizlik va birlik o'zgarishiga Qashqadaryo viloyotida mazkur ko'rsatkichning mos ravishda ayni birliklar bo'yicha o'zgarishini

⁴² Muallif tomonidan Gretl dasturida hisoblangan

baholash imkoniyati yaratiladi.

Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Respublika miqyosidagi savdo xizmatlari hajmining o'sish sur'ati 1 foizga ortishi, viloyat savdo xizmatlari hajmining o'sish sur'atini 1,04 foizga ortishi bilan to'g'ri bog'lanmoqda. Bu esa yuqoridagi tahlil natijalarini yana bir bor tasdiqlab, savdo xizmatlari ko'rsatishning o'sish tendensiyasi Respublikaga nisbatan Qashqadaryo viloyatida tezroq kechayotgan iqtisodiy jarayon ekanligini asoslaydi.

Mintaqada savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasini kuzatish mumkin bo'ladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri – bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmidir. So'nggi yillar dekadasida Respublika hamda mintaqada bu ko'rsatkich bo'yicha o'sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmi Respublikada 2021- yilga kelib 2010-yilga nisbatan 2,89 barobarga, Qashqadaryo viloyatida 2,86 barobarga oshgan. Shuningdek, so'ngi 12 yilda o'rtacha o'sish sur'ati bu ko'rsatkich bo'yicha mos ravishda 110,1 foiz va 109,9 foizni tashkil etadi. Aholi sonining o'rtacha o'sish foizi esa Respublikada 100,95 ga, viloyatda 102,35 ga teng bo'lmoqda. Agar aholi o'sish darajasi viloyatda nisbatan biroz yuqori ekanligini hisobga olmaganda mazkur qiyoslangan miqdorlar deyarli teng bo'lib, mintaqada savdo xizmatlarining aholi turmush tarzi bilan bog'liq umummamlakat miqyosidagi kabi dastlabki holat haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Lekin, Bu yerda ikki jihatga e'tibor qaratish joizki, bulardan birinchisi aholi sonining hamda aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmining o'sish sur'ati o'rtasidagi katta farqning mavjudligidir. Haqiqatan, Respublikada aholi sonining hamda aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmining o'rtacha o'sish sur'ati o'rtasidagi farq +9,2 foizni, viloyatda esa +7,6 foizni tashkil etadi. Demak, aholi soniga nisbatan savdo xizmatlari hajmining o'sish tendensiyasi yuqoriroq tezlikda sodir bo'lmoqda (Maxmatqulov, 2023). Bu savdo xizmatlariga jamiyat ehtiyojlarining so'nggi yillarda oldingi yillarga nisbatan muntazam ortib borayotganligini ifodalab, tarmoqning rivojlanish dolzarblii tabiiy zaruriyat asosida mavjudligini ko'rsatadi (Jo'rayev, 2023).

Ikkinchi e'tiborli jihat, aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmining viloyatda Respublikaga nisbatan ancha past ko'rsatkichga egaligidir. 2010-yilda bu ko'rsatkich mintaqada Respublikadan 91,57 ming so'mga kam bo'lsa, keyingi yillarda ham bu farq yiriklashib, 2021-yilga kelib 269,56 ming so'mga teng bo'lmoqda. Demak, mintaqada aholiga ko'rsatilayotgan savdo xizmatlari hajmi Respublika bo'yicha qaralganda diyarli bir xil o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi, mintaqada aholisining mavjud ehtiyojlarini bir xil qondirish darajasini ta'minlab berolmaydi, ya'ni mintaqada savdo xizmatlarini rivojlantirish umumrespublikaga nisbatan ham dolzarbroq bo'lib chiqmoqda. Bu juda ahamiyatli jihat bo'lib, mintaqada savdo xizmatlari hajmi, aholi sonining o'sish darajasi, hamda mintaqada aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmining Respublikaga nisbatan farqi o'rtasidagi bog'liqlik modelini qurish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Belgilashlar kiritamiz: *MRF* - mintaqada aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmining Respublikaga nisbatan farqi (ming so'm); *MSXH* – mintaqada ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi (mlrd so'm); *ASO'S* – mintaqada aholi sonining o'sish sur'ati (foiz). Bu belgilarning 1- va 5-jadvallarda keltirilgan real qiymatlari bo'yicha o'zaro korrelyatsion zichligini tekshiramiz (3-jadval).

3-jadval

Korrelyatsiya koeffitsiyentlarining qiymatlari⁴³

| | <i>MRF</i> | <i>MSXH</i> | <i>ASO'S</i> |
|--------------|------------|-------------|--------------|
| <i>MRF</i> | 1 | | |
| <i>MSXH</i> | -0,9938129 | 1 | |
| <i>ASO'S</i> | 0,76249350 | -0,5906929 | 1 |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga tayanidigan bo'lsak, u holda mintaqada aholi jon boshiga

⁴³ Eviews10 dasturida muallif tomonidan hisoblangan

savdo xizmatlari hajmining Respublikaga nisbatan farqi bilan mintaqada ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmi o'rtasida juda kuchli teskari bog'liqlik (-0,99) mavjudligi, shuningdek, mintqa aholisi sonining o'sishiga to'g'ri bog'langan hamda, yetarli korrelyatsion zichlikka ega (0,76) ekanligi kelib chiqadi. Haqiqatan, oson ko'rish mumkinki, mintaqada ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmining kamayishi, aholi sonining o'sishi mavjud farqning ortishiga olib keladi yoki aksinchasi o'rinli.

Bu belgilarni orasida MRF ni endogen sifatida olib chiziqli bog'liqlik mavjud deb faraz qilamiz. U holda quyidagi parametrik aniqlanmagan ekonometrik modelga ega bo'lamic, ya'ni,

$$MRF = A_0 + A_1 * MSXH + A_2 * ASO'S \quad (5)$$


Bu yerda A_j ($j = 0,1,2$) – model parametrlari. Modelni parametrlashtirish natijasida quyidagi matematik tavsifi kelib chiqadi

$$MRF = \underbrace{-929,9}_{t=-2,68} + \underbrace{00,22}_{t=28,07} * MSXH - \underbrace{9,09}_{t=-2,71} * ASO'S, \quad (R^2 = 0,99, \delta = 1,17\%) \quad (6)$$

(2.5) modelning elastiklik koefitsiyentlari MSXH bo'yicha -0,995 ga, ASO'S bo'yicha esa +5,16 ga teng.

Modellashtirish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmining 1 foizga oshishi mintaqada aholi jon boshiga savdo xizmatlari hajmining Respublikaga nisbatan farqini 0,995 foizga kamayishiga, mintaqada aholi sonining 1 foizga o'sishi esa bu farqning 5,16 foizga oshishiga olib keladi. Bundan aholi sonining o'zgarishi farqni yuzaga keltiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi kelib chiqmoqda. Yuqorida tahlil natijalari asosida Qashqadaryo viloyati aholisining o'sish darajasi Respublikaga qiyoslaganda nisbatan biroz yuqori ekanligini ta'kidlagan edik. Modellashtirish natijalari shu "biroz yuqori" darajaning aslida katta ta'sirga ega ekanligini asoslab turibdi. Tadqiqotimiz natijalari asosida aniqlangan bu ilmiy fakt ayni iqtisodiy qonuniyatlar, ya'ni 0,03 foiz farqlik iqtisodiy o'sish ta'siri (1 foizga 1,03 foiz) mintaqada jon boshiga to'g'ri keluvchi savdo xizmatlari hajmining balans ko'rsatkichiga erishi uchun yetarli bo'lmasligini anglatadi.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida tashqi savdoning o'ziga xos o'rni bor. Tashqi savdo ko'rsatkichlari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etiladi. Shu sababli mamlakatning rivojlanish darajasini baholashda ham asosiy ahamiyatga ega. Shunday ko'rsatkichlardan biri shubhasiz – bu tashqi savdo balansidir. Mintaqaning tashqi savdo balansi (saldo) so'nggi yillarda salbiy saldo holatida bo'lib turibdi. Quyida so'nggi 12 yildagi saldoning o'zgarish tendensiya grafigi keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Qashqadaryo viloyati tashqi savdo balansining o'zgarish tendensiysi⁴⁴

⁴⁴ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlangan

Saldo chizig'ida tebranishlar kuzatiladi. 2010-yilda saldo 206986,8 ming dollarga teng bo'lgan bo'lsa, 2015- yilda -198354,4 ming dollarga, 2021-yilda esa -120972,9 ming dollarni tashkil etgan. Bu tebranishlarning asosiy sababi tashqi savdo aylanmasida eksport va import hajmining, yoki faqat birining jiddiy o'zgarishida bo'lishi mumkin. Buni aniqlash maqsadida so'ngi 12 yillik o'zgarish tendensiyani ko'rib chiqilganda, eksport hajmi 2011-yildan keyingi davrda import hajmidan yuqori bo'limgan. Aniq darajasini bilish uchun eksport hajmining import hajmiga nisbatini keltiramiz (4-jadval).

4-jadval


Tashqi savdo eksporti va importining nisbiy qiymatlari⁴⁵

| Yillar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 |
|--------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Nisbat | 2,39 | 3,90 | 0,84 | 0,78 | 0,96 | 0,58 | 0,46 | 0,61 | 0,55 | 0,80 | 0,56 | 0,69 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mintaqada salbiy saldo ko'rsatkichi saqlanib qolmoqda, bunga eksport hajmining nisbatan sekin pasayishi, import hajmining nisbatan tez o'sishi bilan xarakterlanuvchi o'zgarmas tebranishlar sabab bo'lmoqda.

Mintaqada savdo xizmatlarining rivojlanish tendensiyasida mehnat resurslarining soni alohida ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2021-yilda ish bilan band aholi soni Respublikada 13538,9 ming nafarni, Qashqadaryo viloyatida esa 1202,5 ming nafarni tashkil etadi. Respublikada savdo xizmatlari faoliyati bilan bandlar soni 2021- yilda 2010-yilga nisbatan 1,24 barobarga, viloyatda 1,48 barobarga oshganligi kuzatiladi. Bu ko'rsatkich bo'yicha mintaqada savdo tarmog'ida faoliyat yuritayotgan aholi Respublikaga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rshimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida savdo tarmog'ida faoliyat yuritayotgan aholi sonining o'rtacha o'sish sur'ati 102,1 foizga, mintaqada 103,6 foizga teng. Savdo sohasida bandlar sonining jami ish bilan band aholi sonidagi ulushi mintaqada Respublikaga nisbatan barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Mintaqada bu ko'rsatkich 2010- yilda 10,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 12,9 foizga, ya'ni 2,1 foizga oshgan. Respublikada esa bu farq 0,8 foizga teng. Yillar kesimida ulushlar farqining qiymatlanishi ham mintaqada ijobiy holatda. 2010 yilda ulushlar farqi 0,2 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2021- yilga kelib 1,5 ni tashkil etmoqda.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bo'yicha savdo xizmatlari tarmog'idagi mehnat unumdarlik ko'rsatkichi (mln. so'm)

⁴⁵ Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Yuqorida ta'kidlangan natijaviy ustuvorlikning iqtisodiy ustuvorlik sifatida tavsiflashimiz uchun mehnat resurslarining samaradorligini ko'rib chiqamiz. Bu bo'yicha birlik ishchi kuchiga mos keluvchi ko'rsatilgan savdo xizmatlari hajmining real qiymatlaridan foydalanamiz (3-rasm).

Ko'rish mumkinki, Respublika va mintaqada savdo xizmati faoliyati bilan bandlar soni oxirgi 12 yillikda o'sish tendensiyasiga ega. 2010- yilda Respublikada ishchi kuchi samaradorligi 5,36 mln so'm, viloyatda 3,27 mln so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2021- yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 13,76 mln so'm hamda 8,06 mln so'mni tashkil qilgan. Respublikada mehnat unumдорлиги so'nggi yillar dekadasida 2,57 barobarga, mintaqada esa 2,47 barobarga oshgan. Ishchi kuchi samaradorligining 2010-2021-yillar davomida o'rtacha o'sish sur'ati Respublikada 109,2 foizni, Qashqadaryo viloyatida 109,9 foizni tashkil etadi.

Mehnat unumдорлигидаги ошисх юйматлари деярли бир-бирига яқин бо'lsada, Respublikaga nisbatan viloyatda ishchi kuchi samaradorlik ko'rsatkichi ancha past bo'lib, sezilarli farqqa ega (2.10-jadval). 2010- yilda mavjud farq 2,09 mln so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 5,7 mln so'mni tashkil etgan. Aniqlik uchun mintaqada bu ko'rsatkich qiymati 2010 yilda 1,64 barobarga 2021-yilda 1,71 barobarga kamligini ko'rishimiz mumkin.

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida savdo xizmatlari ko'rsatishda mehnat unumдорлиги ko'rsatkichlari (mln so'mda)

| Yillar | O'zbekiston Respublikasida | | | Qashqadaryo viloyatida | | | Farq (3-3) |
|--------|----------------------------|--------|-------|------------------------|--------|------|---------------|
| | 1 | 2 | 3 | 1 | 2 | 3 | |
| 2010 | 6620,8 | 1235,6 | 5,36 | 342,7 | 104,93 | 3,27 | -2,09 |
| 2011 | 7660,3 | 1269,8 | 6,03 | 404,4 | 109,40 | 3,70 | -2,34 |
| 2012 | 8839,9 | 1305,6 | 6,77 | 491,7 | 112,99 | 4,35 | -2,42 |
| 2013 | 10068,7 | 1342,0 | 7,50 | 576,3 | 119,03 | 4,84 | -2,66 |
| 2014 | 11649,5 | 1378,3 | 8,45 | 680,6 | 125,26 | 5,43 | -3,02 |
| 2015 | 13804,6 | 1413,8 | 9,76 | 803,8 | 136,12 | 5,91 | -3,86 |
| 2016 | 16634,6 | 1452,4 | 11,45 | 975,8 | 139,35 | 7,00 | -4,45 |
| 2017 | 16684,5 | 1480,2 | 11,27 | 977,8 | 144,94 | 6,75 | -4,53 |
| 2018 | 17518,7 | 1401,8 | 12,50 | 1024,7 | 149,08 | 6,87 | -5,62 |
| 2019 | 18815,1 | 1436,4 | 13,10 | 1089,3 | 131,77 | 8,27 | -4,83 |
| 2020 | 19530,1 | 1405,4 | 13,90 | 1133,9 | 146,37 | 7,75 | -6,15 |
| 2021 | 21151,1 | 1537,2 | 13,76 | 1249,6 | 155,13 | 8,06 | -5,70 |

Bu yerda: 1-savdo xizmatlari hajmining real qiymati (mlrd. so'm), 2- savdo xizmatlari faoliyati bilan bandlar soni (ming kishi), 3-birlik savdo xodimiga to'g'ri keluvchi savdo xizmatlari hajmi (mln.so'm).

Xulosa va takliflar.

Bunday katta farqning yuzaga kelishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik, demografik, ekologik, ixtisoslashuv kabi xususiyatlaridan kelib chiqishi mumkinligi ilmiy manbalardan bizga ma'lum. Bularni inkor etmagan holda, bizningcha mazkur iqtisodiy holat internet bozorlarning rivojlanishi, mintaqada savdo xizmatlarini innovatsion rivojlanish salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotganligida deb hisoblaymiz.

Haqiqatan, bugungi kunda aholi o'rtasida axborot almashinuv tezligi va manbalari shiddat bilan o'sib bormoqda. Hozirgi mavjud savdo brendlari, internet magazinlari, ulgurji savdo obyektlarining katta ulushi mintaqaga tegishli emas. Bu esa savdo xizmatlari hajmining o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatib turadi

Respublika miqyosidagi savdo xizmatlari tarkibida Qashqadaryo viloyatida savdo xizmatlari hajmining ulushi, mintaqaning hozirgi iqtisodiy salohiyati ta'sirida bir xil farq bilan, ya'ni 0,03

foizga ortib borishi ta'minlansada, o'sish tezligi o'zaro nisbatda 1,04 barobarga teng bo'lib, bu o'zgarmas holatga yaqin ko'rsatkichdir. Bu esa mintaqada, nafaqat, mavjud potensialdan foydalanish samaradorligini oshirish, balki o'sish tendetsiyasini tezlashtiruvchi innovatsion manbalarni aniqlash, iqtisodiy jarayonda yangi rivojlanish omillarining ishtirokini ta'minlashni taqoza etadi.

Mintaqada salbiy saldo kuzatilishiga eksport hajmining kamayishi, import hajmining o'sishi bilan xarakterlanuvchi o'zgarmas tebranishlar sabab bo'lmoqda. Tashqi savdo eksport hajmini oshirish talab etiladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Abdukarimov B.A. va boshqalar. (2016) Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma.-T.: Iqtisod-moliya, – 504 b.

Abdukarimov F.B. (2011) Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Samarqand: SamISI, - 156 b;

Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich. (2023). A MODEL APPROACH TO LONG-TERM FORECASTING OF ELECTRICITY SUPPLY. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(10), 41–45. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/1350>

Keynes J.M. (1936) *The General Theory of Employment, Interest, and Money*. Harcourt Brace Jovanovich, New York, p.96.

Kharchenko E. et al. (2014) Innovative Potential of Russian Regions: Methodological Aspects of Analysis and Development Trends. *Procedia Economics and Finance* 14 313 – 319.

Maxmatqulov, G. X. (2023). "KOMPYUTER TIZIMLARI VA TARMOQLARI" FANIDAN AMALIY VA LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'QITISHDA VIRTUAL CISCO PACKET TRACER DASTURIDAN FOYDALANISH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(15 SPECIAL), 483–486. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4766>

Maxmatqulov, G. O. (2022). A COMPLEX SYSTEMIC ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF THE NETWORK OF TRADE SERVICES. *Development and innovations in science*, 1(16), 10-13.

Maxmatqulov, G. X. (2023). SAVDO XIZMATLARI TARMOQ'INI RIVOJLANTIRISH MASALALARIGA TIZIMLI YONDOSHUV. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 175–182. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4170>

Maxmatqulov, G.X. (2023). SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY USLUBIY YONDOSHUVLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 378–386. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1312>

Michael H.A. (2015) Trade Network Theory. *Hannover Economic Papers (HEP)* No. 553. February. P.-39.

Ohud Almutairi et al. (2020) Performance Modelling of the Impact of Cyber Attacks on a Web-based Sales System. *Electronic Notes in Theoretical Computer Science*. Volume 353, 1 November , Pages 5-20 // <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1571066120300712>

Osnat Mokryna, Veronika Boginab, Tsvi Kuflik. (2019) Will this session end with a purchase? Inferring current purchase intent of anonymous visitors. *Electronic Commerce Research and Applications*. №34. 100836.

Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich. (2021). RESIDENCE AND CATERING SERVICES TO THE POPULATION THE IMPORTANCE OF ECONOMETRIC MODELING IN REGULATORY ASSESSMENT OF CONSUMER REQUIREMENTS TO IMPROVE DISPLAY QUALITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1043–1048. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/859>

Soliyev A., Buzrukxonov S. (2010) Marketing. Bozorshunoslik.Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", - 294 b

Белл Д. (1999) Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования. –М.: Academia, - 956 с.

Гулямов С.С. и др. (1992) Системный анализ эффективности производства в рыночных условиях. – Т.: “Мехнат”.

Диссертация (2022) Развитие услуг розничных торговых сетей: теория, методология, практика. Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Красноярск.

Махматкулов, F. (2022). АХОЛИГА САВДО ХИЗМАТЛАРИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ САЛОХИЯТИНИ БАҲОЛАШДА ТРЕНД МОДЕЛЛАРИНИ ТАНЛАШ МЕЗОНЛАРИ (ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(4), 381–386. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a610

Махматкулов, F. (2023). САВДО КОРХОНАЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАШТИРИШ. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(6), 33–38. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/%x

Хайруллина Н.А. (2015) Эконометрическое моделирование и нейро сетевые инструменты для принятия управлеченческих решений в планировании городской застройки (на примере торговых центров). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Редакционно-издательский центр Башкирского государственного университета., 450074, РБ, г. Уфа, 23 стр.

Шумпетер Й.А. (2007) Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия. –М.: Эксмо, - 862 с.